

TARJIMASHUNOSLIK VA O'ZBEKISTONDA TARJIMONLIK FAOLIYATI

Inomjonova Sarvinoz Bahodir qizi
O'zDJTU, Arab tili tarjima nazariyasi va
amaliyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi
inomjonovasarvinoz2004@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimashunoslik, tarjimashunoslikning mohiyati, tarjimonlik sohasining muammolari haqida, O'zbekistonda tarjimonlik faoliyati, hamda hozirgi globallashuv davrida tarjimonlik faoliyatiga qaratilgan e'tibor haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tarjima, tarjimon, ilmiy, madaniy, aloqa.

شرح: في هذه المقالة، تم تقديم معلومات عن علم الترجمة، جوهر علم الترجمة، مشاكل مجال الترجمة، نشاط الترجمة في أوزبكستان، وكذلك الاهتمام الذي يوجه لنشاط الترجمة في عصر العولمة الحالي.
الكلمات الرئيسية: ترجمة، مترجم، علمي، ثقافي، اتصال.

Аннотация: В этой статье представлена информация о переводоведении, его сущности, проблемах в области перевода, переводческой деятельности в Узбекистане, а также о внимании, уделяемом переводческой деятельности в эпоху глобализации.

Ключевые слова: Перевод, переводчик, научный, культурный, связь.

Annotation: In this article provides information about translation studies, the essence of translation studies, issues in the field of translation, translation activities in Uzbekistan, and the attention given to translation activities in the current era of globalization.

Key words: Translation, translator, scientific, cultural, communication.

Bizga ma'lumki, tarjima va tarjimonlik uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlari tarixi va madaniyatida shakllanib kelayotgan ko'hna ijodiy faoliyat sohalaridan biridir. Insonlardagi chet el xom-ashyolariga bo'lgan qiziqish, davlatlar bir-biri bilan madaniy-iqtisodiy, ilmiy aloqalar o'rnatishi natijasida tarjima, tarjimon degan atama paydo bo'ldi. Yer yuzining turli qit'alari va mintaqalarida bir necha ming yildan buyon umrguzaronlik qilib kelayotgan odamzot nasllari o'z ijodkorlik havaslari, qiziqishlari, imkoniyatlari, manfaatlarini tarjima vositasida ham namoyon qildilar. Uni xalqlararo aloqa vositasiga aylantirib, undan doim samarali tarzda foydalandilar. Tarjima va tarjimonlar orqali insoniyat qavmlari bir-birlaridan xabardor bo'ldi, o'zaro borish-kelish qildi. Shu bilan birga savdo, hunarmandchilik, uy-joy, yo'l qurilishi, dehqonchilik, kabi sohalarni asrma-asr rivojlantirib, yo'lga qo'yib bordi. "Tarjimon" so'zi o'zbek tilida "Tilmoch" deb ham yuritiladi. Aqlu zakovatli va hamisha hushyor, ko'proq tillarni bir-biriga og'zaki o'giradigan ya'ni bir tilni ikkinchi tilga ag'daruvchi, mulqotlar va bitishuvlarni tushunarli qiluvchi, tomonlar o'rtasida ahdlashuvlar va murosallarni bitiruvchi shaxslardir. Tarjimonlar ishlarning o'zaro muvofiq, adolatli bitishi va xalqlarning totuvliklariga xizmat qiladilar. Shu tariqa tarjimonlik insoniyat

yaratgan sohalar ichida eng bebaho, qadrli, ilg'or faoliyat turiga aylandi. Tarjimonlar xalqlarning bir-birlarini bilish va o'rganishlariga tengsiz hissa qo'shdi. Birinchi tarixchilar, geografiya, geodeziya bilan shug'ullanuvchi kishilar ham tarjimonlar ichidan yetishib chiqdi. Jumladan Immanuil Kant o'zining falsafada buyuk inqilob yasagan "Sof aqlning tanqidi" asarida "samarali tasavvur" (продуктивное воображение) degan tushunchani kiritgan va tahlil qilib bergan. Dunyoni bilish falsafasining markazida ana shu "samarali tasavvur" turganidek, u tarjima sohasi va faoliyatining mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunish va tushuntirishga xizmat qiladi. "Samarador tasavvur" so'zlarning quruq ma'nolaridan nafosat yaratadi. Quruq ma'noning nafosat mevasiga aylanishi – shaklning mazmundorlik kasb etishi tarjima ijodining dialektikasi va qimmatini belgilaydi¹. Tarjima badiiy va lug'at faoliyatining spetsifik turi. Tarjima badiiy, ilmiy ijod kabi til, tafakkur va fantaziya bilan ish ko'radi. Badiiy tarjimada ma'no va uslub, kolorit bilan birga poetika asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Tarjimonlik ijtimoiy hayot taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq, ya'ni madaniyat, san'at va adabiyot tarixi bilan uzviydir. Tarjimashunoslik – bu lingvistik, madaniy va texnik jihatlarni birlashtiruvchi soha bo'lib, matnlarni bir til orqali boshqa tilga aniq va to'g'ri tarjima qilish jarayonini o'rganadi. Ushbu ilmiy yo'nalish asrlar davomida insoniyat madaniyati va bilimni rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Tarjimashunoslik faqat tilni bilish emas, balki ma'no, madaniyat va stilistik xususiyatlarni ham o'z ichiga oladi.

Tarjimashunoslik nafaqat so'zlarni tarjima qilishni, balki til vositasida madaniyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashni maqsad qiladi. Bu jarayonda tarjimonning bilim darajasi, professional tayyorgarligi va til his-tuyg'usiga ega bo'lishi alohida o'rin tutadi. Tarjimonlik sohasi globallashuv davrida tobora muhim ahamiyat kasb etib, madaniyatlar, tillar va millatlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi vosita sifatida e'tiborga olinmoqda. Biroq, bu sohaning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammolar ham mavjud bo'lib ularni hal qilish dolzarb masalalardan biridir.

Quyida tarjimonlik sohasida uchraydigan asosiy muammolar haqida so'z yuritamiz.

1. Professional tarjimonlar yetishmasligi: Tarjima ishini bajarish uchun nafaqat tilni mukammal bilish, balki chuqur madaniy, texnik va stilistik bilimlarga ega bo'lish talab etiladi.

2. Avtomatlashtirilgan tarjima vositalarining chegaralari: Zamonaviy tarjima dasturlari, masalan Google translate va shunga o'xshash dasturlar matnlarni tez va arzon tarjima qilish imkonini beradi. Biroq bunday vositalar murakkab matnlarni, ayniqsa badiiy asarlarni yoki madaniy noroziliklarni to'g'ri tarjima qilishga qodir emas. Chunki ularda his qilish tuyg'usi yo'q.

3. Madaniy tafovutlarni tushunmaslik: Tarjimonlikda tilning Grammatik qoidalarini bilish yetarli emas, tarjimon madaniy tafovutlarni ham hisobga olishi kerak. Masalan, ma'nosi bir til uchun maqbul bo'lgan ibora boshqa tilde noto'g'ri yoki noqulay qabul qilinishi mumkin. Bu masalani bilish uchun esa tarjimonning dunyoqarashi va madaniyatlararo bilimlari bo'lishi zarur.

4. Texnik va ilmiy matnlar bo'yicha maxsus tarjimonlarning kamligi: Hozirgi davrda ilm-fan, texnika va texnologiya tez rivojlanmoqda, bu esa texnik va ilmiy matnlarni tarjima qilishni talab etadi.

Shu jumladan O'zbekistonda ham tarjimonlik faoliyatiga juda kata e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda tarjimonlik faoliyati Islom davri ilmi bilan bog'liq bo'lgan. Xususan, 9-10 asrlarda yashab ijod qilgan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy va Abu Rayhon Beruniy kabi olimlar o'z asarlarini arab, fors va yunon tillariga tarjima qilish orqali Sharq va G'arb ilmiy madaniyati o'rtasida ko'prik vazifasini o'tagan. Bu davrda musulmon olami tarjimonlik ilmiy sohani rivijlantirish uvhun muhim vosita bo'lgan. Temuriylar davrida ham tarjimonlik faoliyati yuksalgan. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk mutafakkirlar asarlarida tarjimaning ahamiyati haqida ko'plab fikrlarni uchratish mumkin. Bu davrda Sharq va G'arb adabiyoti o'rtasidagi aloqalar kuchaygan va buning natijasida ko'plab asarlar tarjima qilingan. O'zbek adabiyotida badiiy tarjimonlikdagi ilk yorqin misollar Xamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Oybek, Mirtemir, Zulfiya va boshqa ko'plab ijod ahllarining qalamiga mansubdir. O'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor A.Chexov asarlarining eng yaxshi tarjimonidir. U o'zining hikoyalarida fenomen his tuyg'u tajribasi bilan payqaladigan hodisaning mohiyatini ochib berdi². 1950-yillarning oxirlariga kelib O'zbekistonda tarjima tarixi va nazariyasi tadqiq etila boshlandi, taniqli yozuvchi olim va tarjimon Jumaniyoz Sharipov "O'zbekistonda tarjima tarixidan" "Badiiy tarjimalar va tarjimonlar" kabi monografiyalar chiqardi. Taniqli olim va fan tashkilotchisi G'.Salomov "Tarjima nazariyasiga kirish", "Tarjima nazariyasi asoslari" kabi darslik va qo'llanmalar yozdi, "Tarjima san'ati" kabi turkum to'plamlarni chiqarishga bosh qosh bo'ldi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng tarjimonlik faoliyati yangi bosqichga ko'tarildi. Davlat va Xalqaro miqyosdagi munosabatlarning rivojlanishi natijasida tarjimonlarga bo'lgan talab sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, ilm-fan, texnika, adabiyot va madaniyat sohalarida yuqori sifatli tarjimalarga ehtiyoj kuchaydi. Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotining jahon maydoniga chiqishida tarjimonlarning hissasi kata. O'zbekiston yozuvchilari ko'p tillarga tarjima qilish orqali milliy adabiyotning ham nufuzi oshmoqda. Shu bilan birga Xorjiy adabiyotlar ham O'zbek tiliga ko'plab tarjima qilinmoqda. Tarjimonlik faoliyatining rivojlanishiga qaramay, yuqorida sanab o'tgan ayrim muammolar ham mavjud. Biroq, bu muammolarni bartaraf etish uchun hukumat va xususiy tashkilotlar tomonidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida jumladan, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetlarida tarjimonlik bo'yicha maxsus fakultetlar tashkil etilgan, malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yilgan.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda tarjimonlik faoliyati milliy madaniyat va jahon merosi o'rtasidagi aloqani ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Tarjimonlarning mehnati nafaqat ilmiy va adabiy merosni keng ommaga tanitadi, balki

o'zbek tilining jahon miqyosidagi mavqegini mustahkamlaydi. Shu bois, bu sohani rivojlantirish milliy va xalqaro ahamiyatga ega strategik vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ofurov Ibrohim Tarjima nazariyasi. – Tafakkur bo'stoni Toshkent, 2012.
2. Ibrohim G'afurov Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. – Toshkent 2008.